

SHARQ ALLOMALARI MEROSI; MAHMUD AZ ZAMAXSHARIYNING “AL MUFASSAL” ASARI

Bahodirov Doniyor Aminovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq allomalarining mumtoz ilmiy merosi, ilm-fan rivojidagi tutgan o'rni, ularning ezgu g'oya, maqsad va ta'limotlarni keng xalq ommasiga yetkazish ahamiyati, shuningdek, Mahmud az Zamaxshariyning “Al-Mufassal” asari borasidagi muxtasar lekin keng ahamiyatli malumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: ilmiy meros, maqsad, ilm-fan, tadqiq, asar, xattot, qadriyat, grammatika, Sharq mintaqasi, naql, ta’limot.

Sharqning turli hududlarida yashab ijod qilgan buyuk zabardast olim va allomalarining mumtoz ilmiy merosi hamda ularning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan bebafo hissasi va ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rnnini chuqur ilmiy tadqiq etish, har tomonlama teran o'rganish va keng tahlil qilish uchun vatanimiz va xorijiy davlatlardagi kutubxona va arxiv fondlarida saqlanayotgan qo'lyozma asarlarini aniqlash va o'rganish muhim va dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Har xil mafkuraviy salbiy xurujlar avj olayotgan bugungi kunda ajdodlarimizning ma'naviy merosini chuqur o'rganish, ulardagи ezgu g'oya, maqsad va ta'limotlarni keng xalq ommasiga yetkazish va shu asosda yoshlarda sog'lom dunyoqarashni kuchaytirish, ularni azaliy, milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalanishiga o'z hissamizni qo'shish kabi maqsad muddaolarda bu kabi qarorlar naqadar qo'shimcha kuch, ishonch berishini anglab yetmoqdamiz.

Sharq mamlakatlarida bevosita yozuv madaniyati rivojlanishi natijasida arab qo'lyozma va toshbosma kitoblari jamlanmalarining tashkil etilishi keng ommalashgan. Umumbashariy madaniyat durdonalari bo'lmish minglab qo'lyozma kitoblar xattot va muqovasozlarning xolis, mashaqqatli mehnati tufayli bugungi kungacha yetib kelgan va umuminsoniy ma'naviyat mulkiga aylangan. Bir necha asrlar davomida musulmon mamlakatlari ilmiy ma'rifat borasida yuksak natijalarga erishgan. Sharq mintaqasi tarixida faoliyat olib borgan olimlarning hayot va ijodining namunaviy tarixi inson tafakkurining mahsuli, ular kitoblarini o'rganish to'plangan tajribalarga doir ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Xususan, az Zamaxshariyning ko'plab asarlari arab tili va grammatikasiga bag'ishlangan kitoblari so'zimizning yaqqol misolidir. Shuningdek, “Al-Mufassal” asari bir yarim yil ichida, 1121 yil Makkada yozilgan.

Zamaxshariyning «Al-Mufassal» («Grammatika bo'yicha mufassal kitob», 1121) asari arab tili nahvu sarfini o'rganishda yirik qo'llanma sifatida azaldan Sharqda ham, G'arbda ham shuhrat topgan. Shom (Suriya) hokimi Muzaffariddin Muso kimidakim Zamaxshariyning ushbu asarini yod olsa, unga 5 ming kumush tanga va sarupo sovg'a qilishni va'da bergen. Bir qancha kishilar asarni yod olib, mukofotga sazovor bo'lishgan. «Al-Mufassal»ning ixchamlashtirilib, muxtasar holatga keltirilgan nusxasi «Al-Unmuzaj» («Namuna») nomi bilan ataladi. Grammatikaga oid asarlaridan «Sharh abyat kitob Sibavayh» («Sibavayh kitobining sharhi») — arab tilshunosi Sibavayh (796 yili vafot etgan)ning kitobiga yozilgan mukammal sharhdır. Ushbu arab tili

grammatikasiga bag‘ishlangan “Al-Mufassal” kitobi ahamiyatiga ko‘ra, arab olimi Sibavayhning asarlaridan so‘ng ikkinchi o‘rinni egallaydi, deb hisoblanadi. Bu az Zamaxshariy asari o‘z vaqtida qanchalik qadrlanganligini ko‘rsatadi. Ushbu asar qo‘l yozmasi Toshkentda, O‘zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Uning ma’naviyat va ma’naviy madaniyat haqidagi fikrlari ham axloq, tarbiya, nasihat doirasida bayon qilingan. Masalan, u maqtovga, yolg‘on g‘urur, kibrga berilmaslikka chorlaydi: “Agar kimdur o‘zining kelib chiqishi bilan maqtansa, bu sarob kabi zohiriyyidir”, “Haqiqat va nomus yo‘li o‘rmondagи arslon qadami bilan tenglashadi”, “Savdogarning hurmati va nufuzi uning hamyonida, olimniki - kitobida”, “Til orqali (ruhiy) madad moddiy madaddan ustundir”.

Umuman, az Zamaxshariy bilim va umuminsoniy sifatlar orqali erishish mumkin bo‘lgan iroda haqida, insoniyatni farovonlik va xotirjamlikka intilishi haqida yozgan.

Hayotligida uni “Butun dunyo muallimi”, “Barcha arablar va boshqa xalqlar muallimi”, “Allohnинг qo‘schnisi”, “Xorazm shuhrati” va boshqa nomlar bilan ulug‘lashgan.

1144-yil ona diyori Xorazmda vafot etgan. Gurganjga dafn etilgan.

Az Zamaxshariyning hayot va insonlar haqidagi ayrim naqlari:

Savdogarning qadri uning hamyonida.

Ayol kishi sening qalbing usiz yashay olmasligini his etsa, u burningni yerga ishqalaydi.

Doim birovni qoralovchi inson yuqori muvaffaqiyatlarga erishmaydi, xuddi qatronda oqartiruvchi hech narsa bo‘lmagani kabi.

Axloqsiz odamlar ko‘paygan joyda, Yaratgan ularga o‘latni yuboradi (turli ofatlar, balolar va musibatlar).

Gunohkorlarning sodiq do‘sti bo‘lmaydi.

Halol inson doim tinchlikda, xotirjamlikda, sotqin va doim yomonlik haqida o‘ylovchi esa doimiy halokatga mahkumdir.

To‘g‘ri yo‘lda ketuvchi insonning qadam tashlashi arslonnikidan ham ulug‘vorroqdir.

Sharq mintaqasi tarixida faoliyat olib borgan ulamolarning turlicha asarlari inson tafakkurining mahsuli, mintaqaning shonli ilmiy tarixini yoritib beradigan, uni avlodlarga o‘rnak qilib ko‘rsatadigan, ular to‘plagan tajribalarga doir ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mahmud Zamaxshariy. – Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti.
2. Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншунослик. –Т.: 2000.
3. Zyouz.com